

**SURXONDARYO VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGINING
HUDUDIIY TARKIBI VA AGROGEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH
XUSUSIYATLARI**

**ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ОСОБЕННОСТИ
АГРОГЕОГРАФИЧЕСКОГО РАЙОНИРОВАНИЯ
TERRITORIAL STRUCTURE OF AGRICULTURE IN THE
SURKHANDARYA REGION AND FEATURES OF AGRO-
GEOGRAPHICAL ZONING**

Ashurov Jumanazar Saidkulovich

Termiz davlat pedagogika instituti
Texnologiya va geografiya kafedrası o‘qituvchisi

Umarov Shohro‘z Yoqaliyevich

Termiz davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy blim asoslari yo‘nalishi 302-gurux talabasi

Xoliyorov Hasanbek O‘rol o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy blim asoslari yo‘nalishi 302-gurux talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligining hududiy tarkibi va agrogeografik rayonlashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyatning tabiiy-iqlim sharoitlari, er-suv resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasi, aholining joylashuvi va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining ixtisoslashuvi asosida Yuqori, O‘rta va Quyi agrogeografik rayonlar ajratilgan. Har bir rayonning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi o‘rni, ekin maydonlari tarkibi, yalpi hosil va hosildorlik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil etilgan. Olingan natijalar viloyatda qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etish va tarmoqlarni oqilona rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar. Surxondaryo viloyati, qishloq xo‘jaligi, agrogeografik rayonlashtirish, er-suv resurslari, hududiy ixtisoslashuv, sug‘oriladigan erlar, hosildorlik, chorvachilik.

Аннотация. В статье рассматриваются территориальная структура сельского хозяйства и проблемы агрогеографического районирования Сурхандарьинской области. На основе анализа природно-климатических условий, обеспеченности земельно-водными ресурсами, расселения населения и специализации сельскохозяйственного производства в пределах области выделены Верхний, Средний и Нижний агрогеографические районы. Проведён сравнительный анализ структуры посевных площадей, валовой

продукции и урожайности сельскохозяйственных культур по каждому району. Полученные результаты могут быть использованы при оптимизации территориальной организации сельского хозяйства и повышении эффективности использования ресурсов региона.

Ключевые слова. Сурхандарьинская область, сельское хозяйство, агрогеографическое районирование, земельно-водные ресурсы, территориальная специализация, орошаемые земли, урожайность, животноводство.

Abstract. This article analyzes the territorial structure of agriculture and the issues of agro-geographical zoning in the Surkhandarya region. Based on natural and climatic conditions, land and water resource availability, population distribution, and agricultural specialization, the region is divided into Upper, Middle, and Lower agro-geographical zones. The study provides a comparative analysis of crop structure, gross agricultural output, and productivity across these zones. The findings have scientific and practical significance for improving the territorial organization of agriculture and ensuring the rational use of natural resources in the region.

Keywords. Surkhandarya region, agriculture, agro-geographical zoning, land and water resources, territorial specialization, irrigated lands, crop productivity, livestock farming.

Hududlarning o'ziga xos tabiiy-iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ishlab chiqarish yo'nalishi va an'alariga asoslangan holda iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan qishloq xo'jaligi rivojlanganligi hududiy tashkil etiladi. Ta'kidlash joizki, tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va tarmoqlar tarkibini nafaqat hududlarda, balki xo'jaliklar darajasida takomillashtirish hamda etishtirilgan mahsulotlar hajmi va hosildorligini oshirish mazkur sohada aniq alohida rayonlarni ajratishni talab qiladi. Bu vazifalarni ijobiy hal etish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini to'g'ri va oqilona rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar 1009,9 ming ga, shundan sug'oriladigan erlar 270,5 ming gektar bo'lib, bu foydalaniladigan yerlarning 26,8 foizini tashkil qiladi (2024 y.). Viloyat mamlakat yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 8,3 foizini beradi. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulotning deyarli 38,0 foizi aynan qishloq xo'jaligida yaratilmoqda. Biroq, bu ko'rsatkichlar viloyat uchun umumiy xarakterga ega bo'lib, ular ostida katta hududiy tafovutlar, geografik farqlar yotadi. Bunday geografik xususiyatlar, eng avvalo, agroiqlimiy resurslar (yer, namlik va harorat) va ularning hududiy

birikmalari, xo‘jaliklarning ixtisoslashuvi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, viloyat doirasida turli ichki iqtisodiy rayonlarni ajratish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligida er-suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiluvchi agrogeografik rayonlarga ajratildi. Viloyat qishloq xo‘jaligini rayonlashtirishda hududning tabiiy sharoiti, relyef xususiyati, tabiiy resurslari, xususan, er-suv resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasi, asosiy mahalliy ishlab chiqarish yo‘nalishlari va qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi e‘tiborga olindi.

Surxondaryo viloyati doirasida Yuqori agrogeografik rayoniga Sariosiyo, Denov, Oltinsoy, Uzun, O‘rta rayoniga — Boysun, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi; Quyi rayoniga — Sherobod, Qiziriq, Jarqo‘rg‘on, Termiz, Angor, Muzrabot tumanlari kiradi.


Yuqori Surxondaryo agrogeografik rayoni tabiiy sharoiti, agroiqlimiy resurslari, er-suv resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasi ko‘ra boshqa hududlardan farq qiladi. Viloyatning 36,7 % hududi, 38,4 % aholisi ushbu rayonga to‘g‘ri kelib, u viloyat yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotining 37,5 foizini beradi. Bu rayonga viloyat jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan erlarning 22,6 foizi, ekin erlarining 24,3, sug‘oriladigan erlarning 22,0, lalmi erlarning 35,0, ko‘p yillik daraxtzorlar erlarining 47,6 va yaylovlarning 21,1 foizi to‘g‘ri keladi. Er fondining qishloq tumanlar orasida taqsimlanishi ham o‘ziga xos: qishloq xo‘jaligi erlar tarkibida ekin erlarining 2/5 qismi Denov tumaniga tegishli, ko‘p yillik daraxtzorlarning 43 foizi Oltinsoy, yaylovlarning 3/5 qismi Denov va Sariosiyo tumanlariga tegishlidir.

Mazkur rayonda “to‘g‘rilik koeffitsienti”ning yuqoriligi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan erlarning kam bo‘lishiga sabab bo‘lgan (0,06 gektar). Vaholanki, bu ko‘rsatkich viloyat bo‘yicha 0,10 gektarni tashkil etadi (respublika — 0,13 ga). Qishloq tumanlarida eng past ko‘rsatkich Sariosiyo tumaniga (0,05 ga), yuqori daraja Denov tumanida (0,07 ga) qayd etiladi.

Yuqori rayon qishloq xo‘jaligi ekinlari maydoni jihatidan Qashqadaryo viloyatining turdosh rayonlariga nisbatan farq qiladi. Jumladan, uning hissasiga viloyat jami galla maydonining 21,7 foizi, paxta maydonining 24,0, kartoshkaning 35,2, sabzavotning 34,7 va mevaning 48,9 foizi mos keladi. Shu hududda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari geografiyasi yuzaga xos, deyarli barcha ekin maydonlarida Denov tumanining hissasi katta. Rayon g‘alla maydonining 41,7 foizi, paxtaning 44,3, kartoshkaning 43,8 foizi ushbu tumanda joylashgan. Mevali daraxtlarning maydoni bo‘yicha esa Sariosiyo tumani etakchilik qiladi.

Surxondaryo viloyatida etishtirilgan gallaning 25,2 foizi, paxtaning 26,7, kartoshkaning 45,0, sabzavotning 40,4 va mevaning 50,2 foizi Yuqori rayon hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosilida ham Denov tumani ajralib turadi, u rayon gallasining 42,1 foizi, paxtaning 47,1, kartoshkaning 40,6, sabzavotning 35,7, mevaning 35,2 foizini ta'minlaydi. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida, uning hissasiga rayon gallasining 16,8 foizi, paxtasining 19,3, kartoshkaning 10,8, sabzavotning 14,3 foizi to'g'ri keladi.

Mazkur rayon qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi bo'yicha viloyatda etakchi o'ringa ega. Chunonchi, gallaning o'rtacha hosildorligi 62,6 s/ga, paxta 30,4, kartoshka 282,0, sabzavot 790,0, mevaning 87,0 sentnerga teng. Yuqori Surxondaryo chorvachilik mahsulotlari etishtirishda ham viloyatda salmoqli o'ringa ega, go'shtning 34,1, sutning 35,0, tuxumning 18,0 foizini beradi. Chorvachilik mahsulotlarining 2/3 qismi Denov va Uzun tumanlariga to'g'ri keladi.



1-rasm. Yuqori Surxondaryo rayonining qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni (2024 yil, ga). Rasm Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Shunday qilib, Yuqori Surxondaryo qishloq xo'jaligi rayoni mahalliy suv resurslariga egaligi, sug'oriladigan erlarning nisbatan kamligi, mehnat resurslarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Rayon qishloq xo'jaligi asosan kartoshka, meva va sabzavot etishtirishga hamda qisman chorvachilikka ixtisoslashgan. Relief xususiyati hamda mahalliy suv resurslarining etarlicligini inobatga olib, intensiv sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish, sug'oriladigan erlarni kengaytirish va aholining muttasil ko'payib borishini inobatga olgan holda bu erda, eng avvalo, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, go'sht-sut chorvachiligi va parrandachilikni rivojlantirish maqbul hisoblanadi.

O'rta Surxondaryo agrotumaniga Boysun, Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanlari kiradi va viloyat hududining qariyb 1/3 qismini egallaydi. Bu erda viloyat aholisining 22,6 foizi istiqomat qiladi, uning hissasiga viloyat qishloq xo'jalik mahsulotining 20,9 foizi to'g'ri keladi. Rayonda jami qishloq xo'jalik mahsulotining yarmini Qumqo'rg'on tumani beradi.

Viloyat qishloq xo'jaligi erlarining 41,0 foizi ushbu rayonga tegishli bo'lib, uning 54,0 foizi Boysun, 34,5 foizi Qumqo'rg'on, qolgan kichik qismi esa Sho'rchi tumaniga taalluqli. Ekin erlarining 2/3 qismida sug'orib dehqonchilik qilinadi. Lalmi erlarning deyarli 100 foizi Boysun tumaniga tegishli bo'lib, ekin erlarining atigi 15 foizi sug'oriladi, xolos. Qumqo'rg'on va Sho'rchi tumanlarida ekin erlarining barchasi sug'orilib, viloyat sug'oriladigan erlarining deyarli 14 foizi shu tumanlarda joylashgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha sug'oriladigan erlar hajmi Yuqori rayon darajasiga teng (0,06 ga), ammo viloyat ko'rsatkichidan (0,10 ga) pastroq. Bu ko'rsatkich Boysun tumanida eng kam (0,03 ga), Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanlarida esa u 0,08 gektarga barobar. Rayonga viloyat yaylov maydonlarining 50 foizi to'g'ri kelib, uning yarmidan ko'prog'i birgina Boysun tumanida joylashgan. Umuman, O'rta Surxondaryo jami qishloq xo'jaligi erlarining 85,0 foizini yaylovlar tashkil qiladi. Bu jihatdan u O'rta Qashqadaryodan ancha ustun turadi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibida g'allaning ulushi 46,0 foiz (viloyat g'alla maydonlarining 1/5 qismi ko'rilayotgan rayonga to'g'ri keladi), paxtazorlar esa jami ekin maydonining 1/3 qismini egallaydi. G'alla va paxta birgalikda jami ekin maydonining 78 foizini egallaydi, uning deyarli yarmi Qumqo'rg'on tumaniga taalluqli. Kartoshkaning umumiy maydoni 1745 gektar yoki viloyat jami kartoshka maydonining 1/5 qismiga teng. Bu soha ko'proq Sho'rchi tumanida rivojlangan, sabzavotzorlarning viloyatdagi ulushi 20 foizni hosil qiladi.

O'rta Surxondaryo rayoni viloyat yalpi g'alla hosilining 17,5 foizi, paxtaning 16,0, kartoshkaning 21,5, sabzavotning 17,0, mevaning 19,0 foizini ta'minlaydi. Hudud qishloq xo'jaligida Qumqo'rg'on tumanining ulushi yuqori, u g'allaning 58, paxtaning 53, sabzavotning 43 foizini beradi. Kartoshka etishtirishda esa Sho'rchi tumanining hissasi ko'proq (41%). Ekinlarning o'rtacha hosildorligi viloyat o'rtachasidan, kartoshka va mevani hisobga olmaganda, past ko'rsatkichga ega. Boysun tumanida g'allaning asosiy qismi lalmi erlarda etishtirilishi hosildorlikning past bo'lishiga (17,1 s/ga) olib kelgan va rayon o'rtacha hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Mazkur tumanda 2024-yilda paxtadan atigi 666 tonna hosil olindi, bu paxta yalpi hosilining 1,2 foizi demakdir. Binobarin, Boysun tumani dehqonchilik ixtisoslashuvida paxtachilik tarmog'i o'rniga (Qashqadaryo viloyatidagi Kitob va Dehqonobod tumanlari kabi), hudud tabiiy

sharoitidan kelib chiqqan holda, lalmi dehqonchilik, kartoshkachilik, meva va sabzavotchilikka ixtisoslashuvi maqsadga muvofiqdir. Rayon viloyat chorvachilik mahsulotlaridan go'shtning 24,0 foizini, sutning 23,0, tuxumning 22,0 foizini beradi. Bu tarmoqda ham Qumqo'rg'on tumanining hissasi yuqori, u go'shtning 47, sutning 54, tuxumning 51 foizini etishtiradi.

Quyi Surxondaryo agrogeografik rayoni o'z ichiga ma'muriy jihatdan Angor, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Termiz, Sherobod va Qiziriq tumanlaridan iborat. Ushbu ma'muriy rayon viloyatning 39,0 foizini o'zida mujassam qilgan.

Quyi Surxondaryo qishloq xo'jaligi maydonining 32,2 foizini tashkil etadi va ularning 2/5 qismidan ko'prog'ini ta'minlaydi. Quyi Surxondaryo qishloq xo'jalik mahsulotlarining 3/5 qismini Jarqo'rg'on, Sherobod va Qiziriq tumanlari bersa, eng past ko'rsatkich Termiz tumanida (10,0 foiz) qayd etiladi.

Quyi rayonida viloyat g'alla va paxta yalpi hosilining 57,0 foizi, kartoshkaning 33,0 foizi, sabzavotning 43,0 foizi va mevaning 31,0 foizi etishtiriladi. Paxtachilikda Muzrabot, Sherobod, Qiziriq, paxta etishtirishga Qiziriq va Sherobod tumanlari ixtisoslashgan. Qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha hosildorligi faqat galla va sabzavotda viloyat o'rtachasidan yuqori, qolgan ekinlar pastroq.

Chorvachilik bo'yicha rayonning hissasi viloyat etishtiriladigan go'shtning 2/5 qismi, tuxumning esa 3/5 qismi to'g'ri keladi. Go'sht etishtirishda rayonida Jarqo'rg'on go'sht va sutining 2/5 qismi, Sherobod va Jarqo'rg'onda, tuxum etishtirishda esa Termiz tumani ko'zga tashlanadi.

Shunday qilib, Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi geografiyasi o'ziga xos bo'lib, bunday ajratilgan viloyatning yuqori qishloq xo'jaligi mintaqalarida deyarli ko'zga tashlanmaydi. Yuqorida biroz er usti tuzilishi, geomorfologik holati hamda suv bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan, sug'oriladigan er tanqisligiga olib keladi. O'rta rayonida esa, uning vaziyati hududda er, ayniqsa, foydalaniladigan bo'lsa ham er hamda suv muammosi mavjud. Quyi rayonga qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar, jumladan, sug'oriladigan erlar hajmi ko'p, harorat ham etarli, ammo suv zaxiralari juda kam. Aynan cho'l hududlari viloyat agroiqtisodiyot tizimida muhim rolga ega.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi hududiy jihatdan keskin farqlanuvchi agrogeografik rayonlardan iborat bo'lib, har bir rayonning tabiiy sharoiti, er-suv resurslari va ishlab chiqarish ixtisoslashuvi o'ziga xosdir. Yuqori rayon asosan meva-sabzavotchilik va kartoshkachilikka, O'rta rayon lalmi dehqonchilik va chorvachilikka, Quyi rayon esa sug'oriladigan dehqonchilik, ayniqsa g'allachilik va paxtachilikka ixtisoslashgan. Hududiy farqlarni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, er va suv resurslaridan samarali

foydalanish hamda tarmoqlarni optimallashtirish viloyat agroiqtisodiy salohiyatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ruziyev A. Территориальная система агропромышленного комплекса. – Т.: Мехнат, 1986.
2. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт. Т. Камалак, 2013.
3. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан фойдаланишнинг ички тафовутлари. Т.,2015
4. Ashurov J. Surxondaryo viloyatida sel hodisalarining hosil bo'lishi va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Pedagogical sciences and teaching methods 2025 yil 21-26 betlar.
5. Ashurov J. Surxondaryo viloyatining organik dunyosi va yer (agroiklim) resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish masalalari. Экономика и социум 25.11.2025 11(138) 2025
6. Ashurov J.S. (2024). "Cho'llardagi samum, kuy va sarob". Экономика и социум, (4-1 (119)), 65-70.